

## QADIMGI HIND FALSAFASIDA FALSAFIY G‘OYALARNING RIVOJLANISHI

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi, dotsent

### ANNOTATSIYA

*Bizga ma‘lumki, hind sivilizatsiyasi yer yuzidagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biridir. U Hindiston yarim orolida deyarli 6 ming yil oldin paydo bo‘lgan. Qadimgi hind faylasuflari o‘zlarini, tevarak-atrofdagi olamni va undagi o‘z o‘rinlarini anglab yetishga urinib, dunyoqarash ta‘limotlari taraqqiyotida dastlabki qadamlarni qo‘ya boshladilar. Shu tariqa butun jahon madaniyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan Qadimgi Hindiston falsafasi vujudga keldi.*

**Kalit so‘zlar:** Qadimgi Hindiston falsafasi, Vedalar: Samxitlar, Brahmanlar, Aranyaklar, Upanishadlar, Varnalar: brahmanlar, kshatriylar, vayshilar va shudralar, Ortodoksial maktablar: Vedanta, Sanxya, Nyaya, Mimansa, Yoga va Vaysheshika, Noortodoksial maktablar: Buddizm, Charvaka-Lokayata, Jaynizm, Braxmanizm.

### АННОТАЦИЯ

*Нам известно, что индийская цивилизация является одной из древнейших цивилизаций на земле. Он появился почти 6000 лет назад на Индийском субконтиненте. Древнеиндийские философы, пытаясь понять себя, окружающий мир и свое место в нем, начали делать первые шаги в развитии мировоззренческих учений. Так возникла философия Древней Индии, оказавшая большое влияние на мировую культуру.*

**Ключевые слова:** Древнеиндийская философия, Веды: Самхиты, Брахманы, Араньяки, Упанишады, Варны: брахманы, кшатрии, вайшьи и шудры, Ортодоксальные школы: Веданта, Санхья, Ньяя, Миманса, Йога и Вайшешика, Неортодоксальные школы: Буддизм, Чарвака-Локаята, Джайнизм, Брахманизм.

### ABSTRACT

*We know that Indian civilization is one of the oldest civilizations on Earth. It appeared almost 6000 years ago in the Indian subcontinent. Ancient Indian philosophers, trying to understand themselves, the surrounding world, and their place in it, began to take the first steps in the development of worldview doctrines.*

*Thus arose the philosophy of Ancient India, which had a great influence on world culture.*

**Keywords:** *Ancient Indian philosophy, Vedas: Samhitas, Brahmins, Aranyakas, Upanishads, Varnas: Brahmins, Kshatriyas, Vaishyas and Shudras, Ortho-Orthodox Schools: Vedanta, Sankhya, Nyaya, Mimamsa, Yoga and Vaisheshika, Non-Orthodox Schools: Buddhism, Charvaka-Lokayata, Jainism, Brahmanism.*

## **KIRISH**

Jahon falsafasida hind falsafasining o‘rni o‘ziga xos jihatga ega hisoblanadi. Bunga bir qator omillar qilib, hind dini va madaniyatini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Bizga ma‘lumki, falsafa o‘zining shakllanishining dastlabki bosqichlarida ham mifologiya, ham din bilan juda chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ammo Hindistondagi birinchi din bu – buddizm dini sanalashini yodda tutishimiz kerak.

Eramizdan avvalgi II minginchi yilning oxiri va I minginchi yillarning boshida jamiyatda tashkil topayotgan mafkuraviy hayotda buyuk o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Keyinchalik hind jamiyatida o‘z ijtimoiy vazifalariga binoan teng huquqli kishilar to‘rt guruhga yoki varnalarga bo‘lina boshlaydi, ya’ni Braxmanlar (davlat rahbarlari va donishmandlar), Kshatriylar (harbiylar), Vayshiylar (noz-ne‘matlarni yaratuvchi kishilar) va Shudralar (jamiyatdagi eng og‘ir va iflos ishlarni bajaruvchilar). Bu tabaqalar bir-birlaridan ijtimoiy mavqelari, haq-huquqlari va bajaradigan ishlari bilan farqlanadilar[1].

Hind falsafasining shakllanishi miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi hind falsafiy ta‘limotlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) falsafa va dinning yaqin aloqasi;
- 2) fan bilan aloqaning zaifligi;
- 3) inson va tabiatning uyg‘un munosabatiga yo‘naltirilganligi.

Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta‘limot beruvchi birinchi manba Vedalardir. “Veda” so‘zining sanskrit tilidagi lug‘aviy ma‘nosi “bilim” deganidir[2].

Hindistonning dastlabki falsafiy tizimlari Vedalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bular qadimgi Osiyo xalqlaridan o‘zlashtirilgan diniy-mifologik matnlaridir. Oriylar miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida Hind va Gang daryolari vodiysiga kelib, o‘zlari bilan qadimgi Hindistonning dastlabki falsafiy g‘oyalariga ta‘sir ko‘rsatgan o‘ziga xos madaniyat va dunyoqarashni olib kelganlar. Vedalarda garchi mifologik dunyoqarashni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa-da, Hindistonning dastlabki falsafiy g‘oyalari tug‘ilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ular ko‘p asrlar davomida yozilgan.

Xitoyda bo‘lgani kabi, Hindistonda ham falsafa feodal tarqoqlik davrida vujudga keladi. Jamiyat tabaqalashtirilgan va kastalarga bo‘lingan, ular Qadimgi Hindistonda “Varna”lar deb ataladi:

Qadimgi hindistonda 4 ta “Varna” mavjud edi:

- 1) brahmanlar – kohinlar;
- 2) kshatriylar – harbiy ishlar bilan shug‘ullanadigan kishilar;
- 3) vayshilar – dehqonchilik, hunarmandchilik yoki savdo ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishilar;
- 4) shudralar – eng tuban ishlarni bajaruvchi kishilar;

Shuni ta’kidlash joizki, butun jahon falsafasi qadimgi Hindiston falsafasiga asoslanadi. Qadimgi hind falsafasidan katta xazina saqlanib qolgan bo‘lib, bu – sanskrit tilida yozilgan – “Vedalar”dir. To‘plam o‘z ichiga turli xil tabiat kuchlariga qaratilgan afsunlar, marosimlar, duolarni qamrab olgan. Shuningdek, tabiat kuchlariga qaratilgan urinishlar insonni o‘rab turgan olamni falsafa nuqtayi nazaridan talqin qiladi[2].

Vedalar to‘rt qismdan – samxitlardan iboratdir. Samxitlar Vedalarning yirik qismidir. Asosiy samxitlar quyidagilar:

- 1) Samovedlar – diniy qo‘shiqlar va marosimlar to‘plami;
- 2) Rigvedalar – Xudolarga bag‘ishlangan qo‘shiqlar va madhiyalardir;
- 3) Atxarvavedalar – qurbonlik qo‘shiqlaridir.
- 4) Yajurveda – afsunlar to‘plami.

Vedalarning boshqa qismlari Braxmanitlarni – Samxitlarga sharh va tushuntirishlarni, Aranyaklarni – o‘rmon tarkidunyochilari haqidagi rivoyatlarni, Upanishadlarni (ustozning oyoqlari ostida o‘tirib, uning nasihatlarini tinglash) o‘z ichiga olgan. Bular Vedalarning asl falsafiy qismi bo‘lib, ularda birinchi naturfalsafiy, kosmogonik va axloqiy g‘oyalar mavjud edi. Vedalar sanskrit tilida yozilgan.

Biroq vedalarning barchasi oriylar xalqidan adabiy-falsafiy risola sifatida o‘zlashtirilgan, shuning uchun matnlarni tushunishda muayyan muammo yuzaga keladi. Matnlar talqini falsafaning paydo bo‘lishi uchun birinchi qadamdir. Keyinchalik o‘rta asrlar falsafasida muqaddas yozuvni talqin qilishning ko‘plab usullari paydo bo‘ladi.

Upanishad ta’limoti. Upanishadlardagi oliy xudo Indradir. U barcha xudolarning podshosi sanaladi. U trilokani boshqaradi. Qadimda hindlarda dunyo uch olamdan iborat deb hisoblangan. Boshqa Xudolar ham bo‘lganligi aytiladi. Yer xudosi Agni, osmon xudosi Suriya, intiqom va jazo xudosi, kecha va kunduz hukmdori Varuna hisoblangan. Keyinchalik xudolar va Indra panteonida o‘zgarishlar yuz beradi, Agni va Suriya brahmanizm va hinduizmda yaratuvchi xudo Braxma,

qo‘riqchi xudo Vishnu va vayron qiluvchi xudo Shiva tomonidan almashtiriladi. Vishna xudosi boshqa emanatsiyalarga ham ega edi: Krishna (qora) va Budda (nurlangan). Suriya xudosining uchta o‘g‘li bo‘lib, ulardan biri Manu – yarim xudo, yarim odam edi. U insonni yaratadi. Inson Man-u timsolida yaratilgan. Inson yaratilishida ruhga ega bo‘lgan – bu o‘lmas ilohiy qism va tana – moddiy qismlardir. Ruh uni vujudga keltirgan Xudolar dunyosi bilan qo‘shilishni istaydi. Lekin buning uchun ma’naviy yuksalishga erishish kerak edi. Shuning uchun ruh tanadan tanaga ko‘chib o‘tishga va sansara bo‘ylab sayohat qilishga majbur edi. Bu ruhning cheksiz o‘zgarishi va uning yer yuzida sayr qilishidir. Ruh xudolar dunyosi bilan qo‘shilishi uchun inson o‘zini muayyan tarzda tutishi kerak edi. Har bir varna – dharma uchun axloq kodeksi mavjud bo‘lgan. Bu atamaning hind falsafasida ko‘plab talqinlari mavjuddir.

Dxarma – bu ma’lum bir varnadagi odam amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalardir. Yana bir talqin – bu insonning anglashi va amalga oshirishi kerak bo‘lgan taqdiridir. Inson o‘z dxarmasini tushunib, uni bajarib, mokshiga erishishi mumkin edi. Moksha – bu yorug‘lik, kosmik ongga erishishdir. Insonning mokshaga yetgan ruhi sansaradan ozod bo‘lib, Xudolar dunyosiga qaytadi, deb hisoblangan. Hayotdan keyin inson o‘z karmasini to‘playdi. Umuman olganda, karma – bu sabab va oqibat qonunidir. Karmaning yana bir falsafiyroq talqini – bu uning gavdalanishi paytida inson ruhining energiya salohiyatini to‘plashidir. Bu potensial odam o‘lganidan keyin dekompensatsiyalanadi. Agar potensial ijobiy bo‘lsa, unda odam kuchliroq gavdalanishni oladi, agar salbiy bo‘lsa, unda yomonroq gavdalanishni oladi. Masalan, odam o‘ldirib qo‘ysa, qaysidir ovloq cho‘lda, odam kam bo‘ladigan joyda mujassamlashib, darvesh bo‘lib yashaydi, deb hisoblangan. Sansara, karma, dxarma va mokshaning mavjudligini tan olgan falsafiy tizimlar insonga o‘z yo‘lini (dao – konfutsiychilar aytganidek) topishga yordam berish va uni azob-uqubatlardan xalos qilish uchun yaratilgandir.

Keling, Hindiston falsafiy maktablarining asosiy g‘oyalarini ko‘rib chiqsak.

Dastlab falsafiy maktablar Upanishadlarni tan olish yoki olmaslik belgisiga ko‘ra bo‘lingan. Agar maktablar Vedalar nufuzini tan olsalar, bunday maktablar ortodoksal yoki astika deb atalgan. Agar ular Vedalarning obro‘cini tan olmasalar, bu noortodoksal yoki nastika maktablar edi.

Ortodoksal (astika) maktablar quyidagilar:

- 1) Nyaya;
- 2) Vaysheshika;
- 3) Vedanta;
- 4) Sankhya;

5) Mimamsa;

6) Yoga.

Ortodoksal maktablar (astika) "Veda" falsafasiga tayanadi. Bu maktablar tarafdorlari o'limdan keyingi hayotga ishonadilar. Ushbu falsafiy tizimning asosida metafizik muammolarni hissiy emas, balki mantiqiy yo'l bilan o'rganish yotadi.

Noortodoksal (nastika) maktablar:

1) Buddizm

2) Jaynizm

3) Chorvaka (Lokayata).

Noortodoksal maktablar (nastika) qadimgi vedalarga asoslanmagan bo'lib, ushbu maktab tarafdorlari ateistdir. Biroq Jaynizm va Buddizm maktablari astikaga amal qilib, o'limdan keyin hayot mavjudligiga ishonishadi.

Keling nastika maktablarini ko'rib chiqsak:

Buddaviylik rasmiy din hisoblanib, asoschisi Siddharta yoki Buddadir, ya'ni nurlangan. Maktabning falsafiy tushunchasi – nurlangan, nirvana, ya'ni to'la osoyishtalik va xotirjamlik holatiga erishish demakdir.

Jaynizm falsafasining asoschilari 24 taqvodordir. Bizgacha faqat ikki kishining nomi yetib kelgan: Parshva va Maxavira. Djiva (jonli) va adjiva (jonsiz) (sanskrit tilidan tarjima qilingan). Binobarin, jaynizm tiriklik falsafasidir. Jayniylar sansarani ham, karmani ham e'tirof etganlar; jaynizm falsafasi yo'l topishga harakat qilgan. Bu inson o'zgarishlarning cheksiz ketma-ketligidan, ya'ni sansaradan qutulish uchun tutishi kerak bo'lgan yo'l edi. Jayniylarning asosiy asari "Siddxanta"dir.

Chorvaka (Lokayata) – "butun borliq havo, suv, olov va tuproqdan, ya'ni to'rt unsurdan iborat" degan ta'limotni ilgari surgan donolik maktabidir. Bu ta'limotda "O'limdan keyin elementlar parchalanadi va tabiatdagi o'xshashlari bilan birlashadi" degan g'oya ilgari surilgan. Bu maktabning fikricha, faqat moddiy dunyo mavjuddir.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat doimo rivojlanib bormoqda, shu bilan birga ko'p asrlar oldin asos solingan falsafiy oqimlar ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Keyinchalik ular yangi dinlar: (veda falsafasi va mahalliy dinlar bilan uyg'unlashgan brahmanizm) va buddizmning mohiyatini shakllantirdilar.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, tanlangan mavzuning dolzarbligi qadimgi Hindiston falsafasi zamonaviy dunyoda ham mashhur ekanligini tasdiqlaydi. Buddaviylik falsafiy maktabdan ajralib chiqib, Sharq va Janubi-Sharqiy hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi uchta jahon dinlaridan biriga aylandi. Hindistonning madaniyati, falsafasi juda boy. U falsafaning o'tmishdoshidir.



Insonning bilishga bo‘lgan intilishi jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyotiga xizmat qilishi qadimgi falsafiy risolalarda ham aytib o‘tilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Po‘latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimova A., Shozamonov Sh. Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Jahon print”. 2011. -516 b.
2. Ahmedova M. Yo‘ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. 5-bet.
3. Канаева Н. А. Индийская философия древности и средневековья. Учебное пособие. - М., 2008. - 255 с.
4. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. *Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at*. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017. 480-bet.
5. Mullajonov, I., Madalimov, T., Pulatov, Sh., Qodirov, M., Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, 2(11), 47-49.
6. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАХДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
7. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
8. Po‘Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
9. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN‘ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.